



DINIY TA'LIMOTLARDA BAG'RIKENGLIK

Jumaboyeva Zahro

*O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi
Dinshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada diniy bag'rikenglikning mohiyati, uning tarihiy jarayonlari va zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati yaratilgan. Diniy bag'rikenglik faqat e'tiqod erkinligi bo'libgina qolmay, balki taraqqiyotning muhim omili sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zi: Diniy bag'rikenglik, e'tiqod erkinligi, ekstremizim, O'zbekiston, Markaziy Osiyo, dinlararo muloqot, barqaror jamiyat.

Diniy bag'rikenglik turli diniy e'tiqoddagi kishilarning olivjanob g'oya va niyyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashash, jamiyat ravnaqi yo'lida xizmat qilishini anglatadigan tushuncha bo'libgina qolmay bu insonlar o'rtaida hurmat, sabr-toqat va tushunish asosida shakllangan qadriyat bo'lib, u jamiyatdagi tinchlik va barqarorlikning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa bugungi globallashuv davrimizda turli millat va din vakillarining hamkorlikda yashashi tobora dolzarb ahamiyati kasb etmoqda. Tarixga nazar tashlasak, turli din va millat vakillari tinch-toruv yashagan davrlar ko'p uchraydi. Islom, xristianlik, buddizm, kabi dunyo dinlari va ta'limalarida tinchlik, mehr muruvvat va bag'rikenglikni targ'ib qiladi. Islom dini bag'rikenglik,adolat va tinchlikni targ'ib qilar ekan, Qur'onda va hadislarda diniy erkinlik va adolatga doir ko'plab oyatlarni aytishimiz mumkin. Qur'onda shunday deyiladi. "Dinda majburlash yo'q". (Baqara 2:256). Bu oyat hech kim din masalasida majburlanmasligini, diniy erkinlikni bildiradi. Insoniyatning birlikda yashashi va bir-birini tushunishi muhimligi borasida ham quyidagi oyat keltirib o'tsak bo'ladi. "Ey insonlar: Biz sizlarni bir elatlar va qabilalar qilib qo'ydik. Bir-biringizni tanishingiz uchun". (Hujurot 49:13)



Umuman olib qaraganda Qur’oni Karimning ellikdan ortiq suralarida musulmonlar boshqa e’tiqod vakillariga nisbatan hurmat va tinchlikparvarlikka chaqirilgan. Xristianlik dini ham mehr-oqibat, kechirimlik va bag’rikenglikni targ’ib qiladi. Quyida Injilda ko’rsatilgan Iso Masihning dushmanlari kechirish va hammani sevish haqidagi asosiy tamoyillari ko’rsatilgan. “O’z yaqinlaringni sev va dushmanlaringa yaxshi muomala qil”. (Mutto 5:44) Bu gaplar insonlarni nafaqat yaqinlari balki dushmanlarga ham yaxshi munosabatda bo’lishlikni targ’ib qiladi. “O’z yurtingizda yashayotgan begona kishiga zulm qilmang, unga o’z yurtdoshingizdek munosabatda bo’ling” (levit 19:33-34) Bu oyat orqali yahudiylik dini vakillari ham diniy bag’rikenglik va odillik tamoyillariga asoslanishlari ko’rshimiz mumkin. O’t mishga nazar tashlaydigan bo’lsak Xristianlikning dastlabki asrlarida turli elatlar va qabilalar bir-biriga nisbatan bag’rikeng bo’lishga chaqirilgan. Masalan, Rim imperiyasi xristian dinini qabul qilganidan keyin, turli xalqlar tinch-totuv yashaganliklarini ko’rshimiz mumkin. Yahudiylik tarixi davomida bag’rikenglikka oid ko’plab misollar mavjud. Masalan, Al-Andalus (Ispaniya) davrida yahudiylar, musulmonlar va xristianlar birgalikda yashab, ilm-fan rivojiga hissa qo’shgan. Yana bularga misol qilib “Madina ahdi” (Madina Konstitutsiyasi)ni keltirib o’tsak joiz bo’ladi. Madina shahrida Payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v) tomonidan musulmonlar va yahudiylar o’rtasida tuzilgan ushbu hujjat turli din vakillarining tinch yashashini kafolatlagan. Bugungi kunimizda nafaqat o’zbekiston balki Markaziy Osiyo ham azal-azaldan turli dinlar, millatlar va madaniyatlar chorrahasi bo’lib kelgan. Bu mintaqqa yillar davomida diniy bag’ri kenglikni yorqin namunasi bo’lib kelmoqda. Tarixan bizga ma’lumki markaziy osiyo buyuk ipak yo’lining asosiy yo’nalishlardan bo’lgan. Bu savdo yo’li orqali turli dinlar va madaniyatlar uyung’unlashgan joyiga aylangan. Islom buddizim, zardushtiylik xristianlik va yahudiylik kabi dinlar asirlar maboynida birgalikda yashagan. Samarqand, Buxora va Toshkent kabi shaharlar diniy va madaniyat markazisifatida rivojlangan. “ Islom olamining quvatti sayqali” ro’yi zamin deb sharaflangan ushbu sharafdagisi madrasalarda faqatgina



masulmon olimlar ilm olibgina qolmay, balki boshqa din vakillari ham ilm olishgan. Asirlar davomida musulmonlar bilan birga tinch yashaganlar. Buxoro Yahudiylari jamoalari ham hozirgacha tinchlik faravonlikda istiqomat qilishayotganliklarini aytib o'tsak joiz bo'ladi. Farovon diyorimiz O'zbekiston Mustaqillika erishgan, diniy ustunlik va bag'rikenglik davlat siyosatining muhum yo'naliшhga aylandi. Birlashgan Millatlar tashklilotini 1997-yildagi qaroriga binoan 16-noyabir "Xalqaro bag'rikenglik sifatida butun dunyo bo'ylab nishonlanayotgan bu vaqtda O'zbekiston ham bundan mustasno bo'lmadi. 2019-yildan boshlab davlatimiz rahbarining tashabusi bilan bu sanani O'zbekistonda haftalik bayram tarzida nishonlash an'anaga aylanib ulgurdi. Bunga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Konstitutsiyasiga (36 modda) har bir fuqoroga vijdon erkinligi diniy etiqod huquqini kafolatlaydi. O'zbekiston hududidagi diniy ishlar bo'yicha qo'mitaning faoliyati ham mamlakatdagi turli diniy konfessiyalar o'rtaсidagi bag'rikenglik targ'ib qilishdan, diniy bag'rikenglik dinlar va xalqlar o'rtaсidagi barqarorlik va hamkorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etsada ammo bazi - bir guruхlar diniy qarashlarni buzib, ekstremistik g'oyalarni targ'ib qilayotgani inson xafa qiladi. Bunday g'oyalar esa tinch jamiyatda nizo va adovatni kuchaytiradi. Ba'zi davlatlardagi diniy radikal guruхlarning zo'ravonlik harakatlar tinchlika tahdid qiladi. Yana shunday vaziyatlar ham uchraydiki ayrim davatlarga diniy e'tiqodga rioya qilish yoki diniy etiqodlarni bajarish erkinligi shakillanadi. Bazi davlatlarda diniy libos kiyish, diniy ta'lim olish yoki ibodatxonalarни qurish taqiqlanishini misol tariqasida aystsak boladi. Yana ba'zi bir joylarda diniy guruh vakili ishga joylashish va ta'lim olish jamiyat hayotida ishtirok etishda qiyinchiliklarga duch kelish ham mumkin. Bunday muamolarga yechim o'larоq diniy bag'rikenglikni maktab va universitet dasturlariga kiritish va yoshlarni diniy ekstremizm va radikalizimga qarshi tarbiyalash muhim deb o'layman. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak diniy bag'rikenglik faqat e'tiqod erkinligi bo'libgina qolmay, balki jamiyatdagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlash muhim omildir.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, turli din vakillari o'zaro hurmat va



hamkorlik asosida yashgan hududlar ilm-fan, madaniyat va iqtisod jihatdan rivojlangan. Shu boisi bag'rikenglik tamoyilini keng yoyish har bir jamiyat a'zosi va davlatlarning ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi lozim.

Foydalilanilgan adabiyotlar.

1. Diniy mutaassiblik :mohiyati; maqsadlari va oldini olish yillar – 2021 Toshkent
2. Quroni karim -islom dinidagi bag'rikenglik va tinch- totuvlik yashash haqidagi oyat)
3. Bibliya (Injil va Tavrat) – xiristianlik va yahudiylikda bag'ri kenglik haqidagi ta'limot)
4. I IAUUZ - o'zbekiston xalqaro islom akademiyasi matbuoti sayiti.